

SURXONDARYO VILOYATIDA SUV TANQISLIGI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR

Shodmonov Asliddin To'ra o'g'li

Buxoro davlat Pedagogika Instituti talabasi

Annotatsiya; *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida suv resurslaridan foydalanish, suv tanqisligi hamda u bilan bog'liq ekologik muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, Janubiy Surxon suv ombori va uning hududida turistik zona barpo etish rejasi ham ekologik omillar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Suv tanqisligi oqibatida yerlarning sho'rlanishi, hosildorlikning pasayishi, aholi turmush tarziga ta'sirlar, shuningdek, ekologik xavfsizlik masalalari ilmiy tahlil qilinadi va muammoni hal qilish bo'yicha takliflar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Suv tanqisligi, ekologik muammo, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Janubiy Surxon suv ombori, qishloq xo'jaligi, sho'rlanish, barqaror rivojlanish, turizm.*

KIRISH

Suv resurslari insoniyat hayoti va iqtisodiy faoliyatining eng muhim omillaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi uchun ham suv masalasi eng dolzarb ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortishi, qishloq xo'jaligi maydonlarining kengayishi, suvdan noto'g'ri foydalanish va iqlim o'zgarishlari natijasida suv tanqisligi yildan-yilga kuchayib bormoqda. Surxondaryo viloyati — O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan, iqlimi issiq va qurg'oqchil bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu yerda qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan. Shu bois, viloyat aholisining ijtimoiy hayoti va iqtisodiy farovonligi suv resurslarining mavjudligi va ulardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. So'nggi yillarda Respublikada bo'lgani kabi viloyatda ham suv tanqisligi tobora keskinlashib bormoqda. Surxondaryo viloyatida suv resurslari asosan Amudaryo daryosi va uning irmoqlaridan keladi. Hududning o'zida katta daryo mavjud emas, shuning uchun viloyat suv ta'minoti yuqori oqimdagi suv oqimlariga bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda:

- 1) Amudaryodan olinadigan suv hajmining kamayishi,
- 2) Qishloq xo'jaligida suvdan tejamkor foydalanilmasligi,
- 3) Issiq iqlim sharoitida suvning bug'lanib ketishi,
- 4) Qishloq xo'jaligida paxta va g'alla kabi suv talabchan ekinlarning ustuvorligi,
- 5) Iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik hodisalari ko'payishi natijasida viloyatda suv taqchilligi yanada kuchaydi.

Viloyatning Sherobod tumani eng yirik tumanlaridan biri bo'lib, asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan mashhur. 2010-yillargacha tumanning ayrim hududlarida g'alladan bo'shagan yerlarga suv ko'p talab qiluvchi sholi ekilardi. Ammo bugungi kunda suv resurslarining keskin kamayishi oqibatida hozirgi kunda tariq, mosh kabi suvni kam talab qiladigan ekinlarni ekishning o'zi ham qiyinlashib bormoqda. Bu esa tumanning iqtisodiy rivojlanishiga va aholining daromad manbalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Janubiy Surxon suv ombori va ekologik ta'sirlar

Viloyatning katta qismini suv bilan ta'minlaydigan Janubiy Surxon suv ombori muhim strategik ahamiyatga ega. U nafaqat qishloq xo'jaligini sug'orish, uchun asosiy manba hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu hududda turistik zona barpo etish loyihasi tasdiqlangan. Albatta, bu tashabbus viloyatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Ammo suv tanqisligi mavjud sharoitda omborning turizm va sug'orishga bir vaqtning o'zida yetarli darajada xizmat qilishi katta muammo bo'lib qoladi. Bundan tashqari, suv omborida suv bug'lanishi yuqori bo'lib, bu suv zahiralarning kamayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, noto'g'ri boshqaruv oqibatida suv ombori atrofida ekologik muvozanat buzilishi ehtimoli mavjud

EKOLOGIK MUAMMOLAR

Suv tanqisligi Surxondaryo viloyatida bir qator ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda: Yerlarning sho'rlanishi – suv yetishmovchiligi natijasida yerlar sifatli sug'orilmayapti, natijada sho'rlanish kuchaymoqda. Yer degradatsiyasi – qurg'oqchilik va ortiqcha foydalanish natijasida unumdor yer maydonlari qisqarib bormoqda. Biodiversitetning kamayishi – suv tanqisligi natijasida o'simlik va hayvonot dunyosi qisqarib bormoqda. Iqlim o'zgarishi ta'siri – qurg'oqchilik hodisalari tez-tez kuzatilmoqda. Suv tanqisligi aholining turmush tarziga ham bevosita ta'sir qilmoqda. Ichimlik suvi ta'minotida uzilishlar kuzatilmoqda, ayrim qishloqlarda aholiga suv maxsus tashib yetkazilmoqda. Bu esa aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi hosildorligining pasayishi natijasida iqtisodiy daromad kamaymoqda, bu esa ishsizlik va migratsiyani kuchaytirishi mumkin. Ma'lumki, Xo'jaipok yer osti chuchuk suv koni Surxondaryoning bebaho boyliklaridan biridir. Bu yerda qazilgan 55 ta burg'ulash quduqlari go'yo hayot manbai singari yuz minglab insonlarga xizmat qilib kelmoqda. Ana shu tiniq suvlar tufayli viloyatning Sherobod, Qiziriq, Angor va Muzrabot tumanlari ahli o'z tashnaligini qondirib, toza ichimlik suvidan bahramand bo'lishmoqda. Bu quduqlar — yer qa'ridan xalq uchun oqib chiqqan baraka manbai, cho'l bag'rida hayot chirog'ini yoqqan qudratli daryochalardek. Poshxurt yer osti chuchuk suv koni esa Sherobod tumanining g'arbiy qismida, tabiat go'zalligi va geografik mo'jizalari bilan ajralib turadigan hududda joylashgan. Uning shimol, shimoli-g'arb va g'arb tomoni "Ko'hitang" tog' tizmasi bilan tutashgan bo'lsa, janub va janubi-g'arbiy qismlari Kelif–Sherobod gryadasi bilan chegaralangan. Bu kon go'yo tog'lar bag'rida yashiringan durdona singari, shimoliy sharqdan janubi-g'arbga cho'zilgan tabiiy botiqda yashab kelmoqda. Mazkur hududda "Poshxurt", "Zarabog'", "Qorabog'", "Maydon", "Qizil Olma", "Kampirtepa", "Sholqon", "Chorbog'", "Oqtosh", "G'oz", "Vandob", "Sherjon" kabi qadimiy qishloqlar qad rostlagan. Bu manzillar asrlar davomida odamlarning nafaqat uy-joyi, balki orzu-umidlari, hayot tarzi, madaniyati va tarixiy xotirasini ham saqlab kelmoqda. Bugungi kunda bu yerlarda 26 mingga yaqin aholi istiqomat qilib, ajdodlardan meros qolgan makonlarda mehnat qilib, hayotini davom ettirmoqda. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida bu hududda ham 50 ga yaqin burg'u quduqlari qazilgan bo'lib, ular qishloq ahlining hayotiga hayotbaxsh quvvat bag'ishlamoqda. Suv — bu yerda

faqatgina ichimlik manbai emas, balki umid ramzi, kelajak kafolati, hayotiy zaruratning oliy ko'rinishidir. Shu boisdan ham Xo'jaipok va Poshxurt suv konlari Surxondaryoning chinakam gavhari, odamlar hayotini ravon qilayotgan bebaho xazina sifatida qadrlanadi.

Turizm va barqaror rivojlanishga ta'sirlar

Janubiy Surxon suv ombori hududida turistik zona barpo etilishi istiqbolli loyiha bo'lsa-da, suv resurslari tanqisligi uning samaradorligiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, ekologik barqarorlikni ta'minlamasdan turizmni rivojlantirish muammolarni yanada kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Surxondaryo viloyatida suv tanqisligi va ekologik muammolar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish lozim:

1. Qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish va boshqa tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish.

2. Suvni ko'p talab qiluvchi ekinlar o'rniga kam suv talab qiladigan ekinlarni ekishga o'tish.

3. Suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va monitoring tizimini yo'lga qo'yish.

4. Janubiy Surxon suv ombori hududida turizmni rivojlantirishda ekologik barqarorlik tamoyillariga amal qilish.

5. Aholi o'rtasida suvni tejash madaniyatini keng targ'ib qilish.

6. Transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishda qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Shu asosda Surxondaryoda suv resurslarini oqilona boshqarish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va aholining barqaror rivojlanishini yo'lga qo'yish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1)Xikmatov F, Aytbayev, D.P, Yunusov G'.X. Umumiy gidrologiya, o'quv uslubiy majmua

2)Surxondaryo havzasi yer osti suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari, ilmiy ma'lumotlar

3)Xo'shboqova M G,Shamilova D R,Abdurahimova O X,Ko'chkinova S J "SURXONDARYO VILOYATI YER OSTI SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH"

4)Bobojonov N. Sh."SURXONDARYO VILOYATINING SUV RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH MASALALARI"